

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.F.10.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SADIKOVA ASILA BAXTIYOR QIZI

**SOG‘LOM TURMUSH TARZI – MA‘NAVIY BARKAMOLLIK
OMILI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sadikova Asila Baxtiyor qizi

Sog‘lom turmush tarzi ma’naviy barkamollik omili (ijtimoiy-falsafiy tahlil).....5

Садикова Асила Бахтияр кизи

Здоровый образ жизни фактор духовного совершенства (социально-философский анализ)21

Sadikova Asila Baxtiyor kizi

A healthy lifestyle is a factor of spiritual perfection (socio-philosophical analysis).....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.F.10.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

SADIKOVA ASILA BAXTIYOR QIZI

**SOG‘LOM TURMUSH TARZI – MA‘NAVIY BARKAMOLLIK
OMILI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Fal508 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shermuhamedova Nigina Arslanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Qambarov Abdumutal Axadjonovich
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Azamat Muxtorov
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.F.10.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy. Tarix fakulteti, 2-qavat, 219-xona. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19-uy, ARM binosi. Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

B.S.Ganiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

S.U.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda inson salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash, uning ijtimoiy faolligini oshirish, tana va ruh energiyasi mutanosibligiga erishish yo‘lida tizimli faoliyat olib borilmoqda. Insoniyatning umrguzaronligini ta‘minlash uchun turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlash vositalari yaratilmoqda, gigiena qoidalariga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish, aholi turli qatlamlarini o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, yangi tibbiyot texnologiyalarini takomillashtirish va ulardan foydalanishni ommalashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga joriy etilmoqda. Ayni paytda, nosog‘lom turmush tarzi oqibatida qandli diabet, infarkt-miokard kasalliklari yosharmoqda, ba‘zi iqtisodiy beqaror davlatlarda yuqumli kasalliklarning yangi shakllari paydo bo‘lmoqda, “COVID-19” pandemiyasi dunyo aholisining sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga oqilona yondashuvining sustligini namoyon etmoqda. Shu nuqtai nazardan, aholining sog‘ligini asrash, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish uchun tibbiyot ijtimoiy xizmat xodimlari, faylasuflar, psixologlar, sotsiologlarning hamkorligini ta‘minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida aholi salomatligining keskin yomonlashishi sabablarini aniqlash, yuqumli kasalliklardan himoyalash, ommaviy tamaki chekish, spirtli ichimliklarni ichish, giyohvandlikning oqibatlarini o‘rganish, tana, miya va ruhning salomatligini ta‘minlash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Aholi salomatligi va umrguzaronligini ta‘minlash, rejali sog‘lom turmush tarzini tashkil etish mexanizmlarini yaratish, yoshlarning o‘z sog‘ligini saqlash va mustahkamlashga oqilona yondashuvini takomillashtirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini ta‘minlashning omillari sifatida o‘smir yoshlarning “Umid nihollari”, talabalarning “Universiada”lari, mahallalarda aholining turli qatlamlari foydalanishi uchun sport maydonlari, suv havzalari, turli sog‘lomlashtirish klublari tashkil etilmoqda. Shu bilan bir qatorda aholining salomatligi o‘zining qo‘lida ekanligini tushuntirish uchun targ‘ibot ishlari, yoshga doir emlash muolajalari, ommaviy tibbiy ko‘rikdan o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Ommalashayotgan va yosharayotgan kasalliklarning oldini olish, kamaytirish va davolash uchun eng yangi tibbiyot texnologiyalardan foydalanilmoqda. Malakali xorij mutaxassislari bilan tajriba almashish joriy etilmoqda, respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashgan shifoxonalar, dam olish maskanlari ta‘mirlanmoqda, O‘zbekistonda transplantologiya bo‘yicha qonun qabul qilinishi, xospis tashkil etilishi aholining ijtimoiy himoyasi yuqori darajada ta‘minlanayotganligidan dalolat bermoqda. Biroq, fuqarolarning aksariyati emlash jarayonini ongli ravishda inkor etishi, shifokorlarning ko‘rigiga o‘z vaqtida kelmasligi natijasida og‘ir saraton, insult kasalliklari, sog‘lom turmush tarziga rioya qilinmaslik oqibatida qandli diabet kasalligi ko‘paymoqda. Shu bois, aholi turli qatlamlari ongiga sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning zaruratini

singdirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq yetish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6099-son, 2020-yil 10-noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4887-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrdagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4063-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi “Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha shora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 735-sonli qarorlari, 2021-yil 28-apreldagi “Sog‘lom turmush tarzi” platformasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 253-sonli Qarorlari va mavzuga oid boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya yepidemologik hamda informologik vazifani o‘taydi va mavzuga oid boshqa normativ hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga eng qadimgi davrlarda ham alohida e‘tibor qaratilgan. Qadimgi Hindistonning “Ayurveda” kitobida har bir inson kun tartibiga rioya qilish, barvaqt uyg‘onishi, tishlarini tozalashi, ovqatni o‘z vaqtida ite‘mol qilishining ahamiyati, 150 dan ortiq kasalliklarning belgilari va ularni davolashda sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning o‘rni, Xitoyning daosizm ta‘limotida insonning tanasi, sezgi organlari mulohaza qilish qobiliyati bilan uyg‘unligini ta‘minlash uning sog‘ligi kafoloti ekanligi, Platonning “Kritiy”¹ dialogida afsonaviy Atlantida aholisining sog‘ligi ularning to‘g‘ri ovqatlanishi va kayfiyatiga bog‘liqligi, Aristotelning “Nikomax etikasi”² asarida jismoniy tarbiyaning aql tarbiyasiga ta‘siri, Gippokratning “Sog‘lom turmush tarzi haqida” kitobida xususiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar qish faslida ko‘proq ovqat ite‘mol qilishi, suyuqlikni kamroq ichishi lozimligi asoslangan. “Avesto” kitobida qabristonlarga mevali daraxt ekishning mayitning kasalliklari ildiz orqali mevaga o‘tishi va insonga zarar etkazishi, ariqdan oqqan suvni ichish sog‘liqqa zararliligi, shu bois uni tinitib ichish lozimligi ta‘kidlangan. Abu Bakr ar Roziy “Rohatlanish nazariyasi”³ kitobida

¹ Платон Диалоги. - Москва: Наука, 1972. - С. 567.

² Аристотель. Никомахово этика. - Москва: Наука, 1996. - С. 668.

³ Ар Розий Теория наслаждения. - Москва: Наука, 1995.

oqilona hayotdan zavqlanish, asablarni asrashning zarurligini, Ibn Sinoning “Tib qonunlari”⁴ kitobida faslga qarab kiyinishning afzalliklari, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Mineralogiya” asarida shifobaxsh o‘tlar, ma’danli suvlarni ite’mol qilish salomatlik garovi ekanligini, A.Fitratning “Oila”⁵ asarida badan tarbiyasi, M.Behbudiyning “Yoshlarga murojaat”⁶ maqolasida fikr tarbiyasining rolini ochib berilgan.

MDH mamlakatlarida N.Brelenok sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy falsafiy tahlil⁷, R.V.Vorobev sog‘lik fenomenining ontologik tahlili⁸, O.S.Suvorova inson tanasi va o‘limining falsafiy-metodologik tahlili⁹ mavzularida ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlarini e’tirof etish mumkin.

O‘zbekistonda ham sog‘lom turmush tarzini ta’minlashga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, pedagogika soha vakillari D.Sharipova, D.Fayzullina, Ch.Toyloqov salomatlik gigienasining aql gigienasi bilan bog‘likligini¹⁰, faylasuf olimlardan esa R.Arziqulov sog‘lom turmush tarzining tarixiy rivojlanish bosqichlarini va sog‘lom turmush tarzi falsafasini¹¹, M.Nurmatova shaxs ma’naviy kamolotida tana sog‘ligini asrashga oqilona yondashuvning rolini¹², F.Yuldasheva tomonidan “Innovation texnologiyalardan salomatlikni saqlash va asrashda foydalanishining afzalliklari”¹³ni tahlil qilib bergan bo‘lsalar, N.Shermuxeimedova “Inson falsafasi”¹⁴ nomli darsligida L.Qurbonova “Falsafiy antropologiya”¹⁵ asarida, insonning ongli faoliyatida sog‘lik omilining rolini ochib berganlar.

Turli davrlarda yashab ijod etgan olim va mutafakkirlarning asarlaridagi g‘oyalarning tahliliga ko‘ra, sog‘lom turmush tarziga rioya qilishda tana sog‘ligini asrashga e’tibor qaratganligi kuzatiladi, ushbu tadqiqot ishida esa, tana va aql uyg‘unligini ta’minlashning afzalliklarini va valeologiyaning sog‘lom turmush tarzi haqidagi fan sifatida rivojlanish bosqichlarini asoslashga e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiya qilishning falsafiy jihatlari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sog‘lom turmush tarzining inson qadrini ulug‘lash, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish, mamlakat aholisining o‘z hayoti va

⁴ Ibn Sino Tib qonunlari. - Toshkent: Sharq, 2009.

⁵ Fitrat Oila. - Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

⁶ Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 2013.

⁷ Бреленок Н. Здоровый образ жизни социально философский анализ: диссер канд филос наук. – Москва, 2018.

⁸ Воробьев Р.В. Феномен здоровья онтологический анализ: диссер канд филос наук. – Москва, 2013

⁹ Суворова О.С. Телесность и смертность человека: философско методологический анализ: диссер канд филос наук. – Москва, 1995.

¹⁰ Sharipova D., Fayzullina D., Ch.Tayloqov, Valeologiya asoslari. - Toshkent: Peduniversitet, 2010.

¹¹ Arziqulov R. Sog‘lom turmush tarzi asoslari. - Toshkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. 2009.

¹² Nurmatova M shaxs ma’naviy kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar. - Toshkent: Fan, 2011.

¹³ Yuldasheva F. O‘zbekistonda globallashuv sharoitida ma’naviy yangilanishning o‘ziga xos xususiyatlari: falsafa doktori (DSc) avtoreferati - Toshkent: O‘zMU, 2019.

¹⁴ Shermuxeimedova N.A. Inson falsafasi. - Toshkent: innovatsiya ziyo, 2021.

¹⁵ Qurbonova L. Falsafiy antropologiya. - Andijon: ADU, 2018.

mehnatiga oqilona yondashuvini shakllantirish omillaridan biri ekanligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sogʻlom turmush tarziga oid falsafiy gʻoyalar evolyusiyasini tahlil etish va ulardan hozirgi davrda foydalanish boʻyicha takliflar ishlab chiqish;

sogʻlom turmush tarziga oid gʻoyalarning zamonaviy valeologiya fanini shakllanishidagi rolini asoslash;

sogʻlom turmush tarzining tana va aql tarbiyasidagi roli va ijtimoiy muhitning taʼsirini ochib berish;

sportning sogʻlom turmush tarzini taʼminlashdagi siyosiy, ijtimoiy-madaniy ahamiyatini isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida aholining sogʻlom turmush tarzini taʼminlashga oid sotsiologik tadqiqotlar, falsafiy adabiyotlar, psixologik tahlillar olingan.

Tadqiqotning predmetini sogʻlom turmush tarziga amal qilish boʻyicha dunyo va Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli faoliyatning yoʻnalishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, analiz va sintez kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

salomatlikning umuminsoniy qadriyat sifatidagi mazmuni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning asosiy mexanizmi ekanligi ijtimoiy-falsafiy jihatdan asoslandi hamda uni asrash va saqlashda moddiy va maʼnaviy omillar uygʻunligiga tayangan dialektik yondashuv zarurligi ilmiy asoslangan;

jamiyatda sogʻlom turmush tarzi koʻnikmalarini shakllantirishning konseptual asoslari maʼnaviy barkamol inson tamoyillari-barkamol shaxs, komil inson gʻoyasi, milliy va diniy qadriyatlar hamda odob-axloq mezonlari bilan bogʻliqligi ochib berilgan;

aholini ommaviy sport mashgʻulotlariga jalb etish va sogʻlom turmush tarziga tizimli rioya qilish mexanizmlari orqali organizmni chiniqtirish, zararli odatlardan (chekish, alkogol va narkotik moddalarni isteʼmol qilish) tiyilish uzoq umr koʻrishning substansial asosi ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan aniqlangan;

sogʻliqni saqlash tizimini rivojlantirishda davlat siyosatining ustuvorligi shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari, qishloq vrachlik punktlari, yangi tipdagi birlamchi davolash-profilaktika muassasalari faoliyati, ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni byudjet hisobidan davolash hamda milliy farmatsevtika tizimini shakllantirish misolida ochib berildi va mazkur faoliyat inson qadrini himoya qilishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sogʻlom turmush tarzi haqidagi tarixiy gʻoyalar zamonaviy yondashuvlarning qiyosiy tahlili asosida aholi turli qatlamlari ongida “Sogʻlik eng katta boylik”ligini anglash va unga rioya qilishning uzoq umr koʻrish kafolati ekanligi ochib berilgan.

Sogʻlom turmush tarziga hioya qilishning aqliy faollikni oshirish manbai, shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash vositasi ekanligi asoslangan.

“Valeologiya” fani miya faolligi, tana sog‘ligi va ruhiy Kamolot mutanosibligini ta‘minlash, turli kasalliklarning oldini olish va ijtimoiy faol odamni tarbiyalash mexanizmi sifatida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash omili ekanligi asoslangan va sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga oqilona yondashuvni shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada ilgari surilgan g‘oyalarning respublika va xalqaro konferensiyalar to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqola hamda tezislar nashr etilganligi, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflarning amaliyotga joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan xulosalar, takliflardan sog‘lom turmush tarzi va gigiyena qoidalariga rioya qilishni hayotiy zaruratga aylantirish, avlodlararo vorisiylikni ta‘minlash, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, davlat va nodavlat tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzining jismoniy va ma‘naviy barkamollik omili ekanligini aholi turli qatlamlari ongiga singdirishga oid tizimli faoliyatida ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, unda ilgari surilgan taklif va xulosalardan ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida sog‘lom turmush tarzini tashkil etishga oid amaliy mashg‘ulotlarda, turli sport musobaqalarini tashkil etishda, “Valeologiya” fani mavzularining mazmunini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sog‘lom turmush tarzi ma‘naviy barkamollik omili mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

salomatlik umuminsoniy qadriyat sifatida demokratik jamiyat rivojlanishining ustivor yo‘nalishi bo‘lib, dunyoning barcha mamlakatlarida uni asrash va saqlashning moddiy va ma‘naviy usullaridan foydalanishda insonning o‘z hayoti umrguzaronligini ta‘minlashga oqilona yondashuvni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy ahamiyatiga oid g‘oyalardan Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tomonidan o‘tkazilgan targ‘ibot tadbirlari, xususan “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” va “Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam” tadbir Dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2023-yil 15-fevraldagi 01/124-3 sonli dalolatnomasi). Natijalar aholining salomatligiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratishning odamlar ongida sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning kundalik faoliyat darajasiga etkazishning singdirilishiga xizmat qilgan;

aholini ommaviy sport mashg‘ulotlariga jalb qilish, sog‘lom turmush tarziga tizimli rioya qilishning mexanizmlarini ishlab chiqish xalqning ma‘naviy boyligi sifatida avloddan-avlodga o‘tishini ta‘minlash mamlakat aholisi umr ko‘rishining umumiy o‘rta yoshini oshirish imkoni ekanligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi 2023 iylga mo‘ljallangan chora-tadbirlar Rejasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik

masalalari qo‘mitasining 2023-yil 25-fevraldagi 02/44-10 sonli ma‘lumotnomasi). Natijalar barcha hududlarda sport maydonchalarini tashkil etish va ularda aholining turli qatlamlarining jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishini ommalashuviga xizmat qilgan;

Sog‘liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilishining ko‘ptarmoqli shoshilinch tibbiy yordam, qishloq vrachlik punktlari, yangi tipdagi birlamchi davolash profilaktika muassasalari, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kasalliklarga chalingan bemorlarga davlat byudjeti hisobidan tibbiy yordam ko‘rsatish, milliy farmatseftika tizimini yaratishda namoyon bo‘lishi va bu faoliyat inson qadri himoyasini ta‘minlashga yo‘nalganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston respublikasi Yoshlar Agentliginig respublika yoshlari ongiga sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq qilishga oid o‘tkazilgan “Biz, yoshlar - sog‘lom turmush tarzini qo‘llaymiz” nomli tadbir stsenariysini tuzishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar Agentliginig 2023-yil 28-sentyabrdagi 1-15-21-2712 sonli ma‘lumotnomasi). Natijalar xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularning ma‘naviy barkamollikdagi o‘rnini asoslashga doir tadbirlarni tashkil etishga xizmat qilgan;

sportning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishdagi roli va dunyoda tinchlikni saqlash, ijtimoiy hamkorlik, madaniyatlar dialogining vositasi sifatidagi ahamiyati ochib berilgan va yoshlarni sport musobaqalarida ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflardan Germaniya federative respublikasi Bremen shahridagi “Ausbildung und Arbeit Plus GmbH” ilmiy tadqiqot markazida “Fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini tizimli tashkil etish” nomli tadqiqot doirasida foydalanilgan (Germaniya 2023-yil 03/03 dagi 28207-son ma‘lumotnomasi). Natijalar ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda inson salomatligining o‘rni va roli, uni mustahkamlash taraqqiyot omili ekanini tushunishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan hamda ma‘qullangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlarning soni, tadqiqotning tuzilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Sog‘lom turmush tarzining mohiyati, nazariy va ijtimoiy falsafiy jihatlarini”** deb nomlangan birinchi bobida sog‘lom turmush tarzi tushunchasining mohiyati va uning ahamiyati haqidagi ta‘limotlar dinamikasi, valeologiyaning sog‘lom turmush tarzi haqidagi fan sifatidagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan.

Muallif fikricha, fuqarolarning sog‘lom turmush tarziga rioya qilishining hayot muhofazasini ta‘minlashdagi o‘rniga oid g‘oyalar qadimgi hind manbalari, “Ajurveda” hamda Markaziy Osiyodagi eng qadimgi yozma manba “Avesto”da ham o‘z ifodasini topgan. «Avesto» muqaddas kitobida inson salomatligini saqlash va asrash, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish haqidagi g‘oyalar kundalik turmush, ijtimoiy-madaniy hayot tajribalarining umumlashtirilishi natijasidir. Taxminan 3000 yil avval “Avesto” muqaddas kitobida “Tabiiy muhitning muhofazasi va tozaligi, turli kasalliklarning oldini olish maqsadida suvni tinitish, ifloslangan joylarni ko‘mish, oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, sirka, sharob, turli giyohlarni tutatish”¹⁶ tavsiya etilgan. Zardo‘shiylikning bu an‘analari hozirgi o‘zbek xalqining turmush tarzida isiriq, hindlarning urf-odatlarida sandal tutatish marosimlarida davom etib kelmoqda. “Avesto”da “Kasallik senga tegmasdan oldin uni yulib ol”¹⁷, degan g‘oya kasalliklarga qarshi insonning o‘zini-o‘zi himoya qilishni tarbiyalashga da‘vatdir. Shuningdek xonadon tozaligini saqlash, uy hayvonlar yashaydigan hududlar tozaligini saqlash sog‘lom turmush tarziga rioya qilish qoidalaridan biridir. Sharq davlatlarida sog‘lom turmush tarziga oid muhim g‘oyalar Abu Bakr ar Roziy (865-925)ning “Ma‘naviyat tibbiyoti”, “Falsafa turmush tarzi” kabi asarlarida inson sog‘ligini saqlash va asrash, ma‘naviy barkamollik omillari haqidagi g‘oyalar ilgari surilgan. Uning “Ma‘naviyat tibbiyoti”¹⁸ asarida jismoniy va ruhiy tibbiyot farqlanadi, jismoniy tibbiyot inson tanasi kasalliklarining oldini olish, davolash, ruhiy tibbiyot axloqiy tarbiyaga mo‘ljallanadi, insonning ma‘naviy kamolot yo‘lini belgilaydi.

Ibn Sino ham inson va uning ma‘naviy kamoloti masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Uning fikricha, shaxs ma‘naviy kamolotga erishish uchun avvalo axloqiy kamolotga erishmog‘i kerak. U axloqlilik asosini ikki tushuncha, ya‘ni yaxshilik va yomonlik tushunchalari tashkil qilishini hamda barcha tirik mavjudotlar o‘z tabiatiga ko‘ra komillik, kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilish esa yaxshilikdir. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi degan fikrni ta‘kidlagan¹⁹. Albatta, insonning axloqiy va irodaviy sifatlari u yashayotgan muhit, irsiyat, shaxslararo munosabatlardagi insonlar ta‘siri hamda ta‘lim – tarbiya jarayonlarining ta‘siri natijasida yuzaga kelishi haqidagi qarash o‘z tasdig‘ini topgandir. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilishga oid g‘oyalar ibtidoiy jamiyat davrida ham shakllangan bo‘lib, ratsional ongning takomillashishi sog‘likning eng katta boylik sifatidagi ahamiyatini oshirgan. Ayni paytda texnogen sivilizatsiya ta‘sirida jismoniy mehnatning roli kamayishi odamlarning o‘z sog‘ligiga nisbatan

¹⁶ Xomidiy X. Avestodan islomgacha. - Toshkent: Sharq, 2009. - B. 18.

¹⁷ O‘sha manba. - B. 70.

¹⁸ Ар-Розий. Медицина духовности. - Москва: Наука, 1999. - С. 56.

¹⁹ Псыдло Э.М. Темперамент и характер в истории медицины и психологии. (Учебно-справочное пособие) - Одесса: Наука и техника, 2007. - С. 19.

loqaydlik, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga erinchoqlikni shakllantirmoqda, bu esa odamlarning sog'lom turmush tarzi me'yorlariga amal qilmasligiga olib kelmoqda.

Dissertatsiyada texnogen sivilizatsiya natijasida bir tomondan farovonlik ko'rsatkichlari yuksalishi, ikkinchi tomondan turli kasalliklar paydo bo'lishi salomatlik haqidagi yangi fanni paydo bo'lishiga asos bo'ladi, bu boradagi bilimlarni tizimlashtirish insonlarning sog'lom turmush tarziga rioya qilishining oshishiga xizmat qilishi ochib berilgan. Muallif fikricha inson tanasi salomatligining aqliy faollik bilan mutanosibligini ta'minlash jarayonini ilmiy asoslash, uning nazariy va amaliy ahamiyatini aholi turli qatlamlari ongiga singdirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Faqat nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlansagina, dialektikadagi inkor qonuni amal qiladi va odamlar tafakkurida o'z salomatligi o'z qo'lida ekanligi haqida aniq xulosalar shakllanadi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib etish unga amal qilish tartiblarini o'zida mujassamlashtirgan valeologiya fanini ta'lim tizimining quyi bosqichlariga joriy etish va shu orqali bu jarayonga oqilona yondashuvni shakllantirish, har bir insonning o'z sog'lig'ini o'zi muhofaza qilishi, uning o'z vaqtida rejali dispanserizatsiyadan o'tishiga ongli yondashuvni tashkil etish, aholining turli qatlamlari uchun salomatlikni asrashni targ'ib etuvchi maxsus kurslarda o'qitishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda salomatlik nazariyasini nafaqat tibbiyot yo'nalishi balki axloqiy, huquqiy, falsafiy, madaniy jihatlariga e'tibor qaratish lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan berilgan.

Mazkur hodisa biologik salomatlikni saqlash bilan cheklanmay, balki insonning ijtimoiy faolligi, ma'naviy yetukligi va madaniy ong darajasini ifodalovchi kompleks falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish inson va jamiyatning ontologik birligi nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Inson jamiyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaganidek, uning turmush tarzi ham ijtimoiy munosabatlardan uzilgan holda shakllanmaydi. Shu bois sog'lom turmush tarzi shaxsning individual tanlovi bilan birga, jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarining mahsuli hisoblanadi.

Sog'lom turmush tarziga rioya qilish aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan oliy ijtimoiy qadriyat sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvda salomatlik instrumental xarakterga ega vosita sifatida emas, balki o'z-o'zidan mustaqil va fundamental qadriyat sifatida talqin etilib, shaxsning hayotiy maqsadlari hamda ijtimoiy ideallarini belgilovchi asosiy omil vazifasini bajaradi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish gnoseologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bunda shaxs sog'lom hayot tamoyillarini faqat tashqi majburiyat yoki normativ talab sifatida emas, balki ilmiy bilimlar, ijtimoiy tajriba hamda individual tafakkur jarayonlari orqali ongli ravishda o'zlashtiradi. Natijada sog'lom turmush tarzi shaxs ongida ichki e'tiqod shakliga ega bo'lib, barqaror xulq-atvor modelining shakllanishiga zamin yaratadi. Sog'lom turmush tarziga rioya qilish ijtimoiy institutlar faoliyati bilan dialektik bog'liqdir. Oila, ta'lim tizimi, mahalla, ommaviy axborot vositalari va davlat siyosati sog'lom hayot me'yorlarini ijtimoiylashtiruvchi va legitimlashtiruvchi mexanizmlar vazifasini bajaradi. Bu institutlar orqali sog'lom turmush tarzi ijtimoiy ongda barqaror norma sifatida qaror topadi.

Falsafiy-nazariy yondashuvlarda sogʻlom turmush tarzi insonning mavjudlik usuli sifatida qaraladi. Bu mavjudlik usuli insonning tabiat, jamiyat va oʻz «men»i bilan uygʻun munosabatini taʼminlovchi omillar majmuasidan iborat. Shu maʼnoda sogʻlom turmush tarzi inson hayotining sifat koʻrsatkichini belgilovchi nazariy kategoriya sifatida namoyon boʻladi.

Dissertatsiyaning **“Sogʻlom turmush tarzini maʼnaviy sogʻlomlashtirishning ijtimoiy mohiyati”** deb nomlangan ikkinchi bobida sogʻlom turmush tarzini taʼminlashning genetik omillari va ijtimoiy ahamiyati, ijtimoiy muhit va sogʻlom turmush tarzi mutanosibligini taʼminlashning maʼnaviy omillari, ijtimoiy valeologiyaning jamoa va inson salomatligini asrashdagi oʻrni ochib berilgan. Muallif fikricha, insonning salomatligi, uning kishilar va jamiyat bilan rang-barang ijtimoiy munosabatlariga bogʻlab oʻrganishni taqozo etadi. Inson salomatligini asrashning biologik va ijtimoiy omillari, ularning sotsial munosabatlarni tashkil qilishdagi oʻrni bilan bogʻliq. Bu jarayonga ekologik vaziyatning buzilishi, oziq-ovqat sanoatining keskin oʻzgarishi, sunʼiy oziq-ovqatlarning koʻpayishi, ogʻir ijtimoiy sharoitlar bu jarayonga salbiy ekologik sharoitlar, oziq-ovqat sanoati va kundalik hayotda ishlatilayotgan sunʼiy preparatlarning koʻpayishi, ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar taʼsir etishi mumkin. Bu jarayonda ota-onaning sogʻlom turmush tarziga rioya qilish meʼyorining buzilishi urugʻlanish jarayoniga salbiy taʼsir koʻrsatishi va homila boʻlmasligi, yoki paydo boʻlgan holda ham, uning nobud boʻlishi hollari tasdiqlangan.

Muallif E.N.Vaynerning, **“Salomatlik va kasallikning tugʻma, yaʼni avloddan-avlodga meros boʻlib oʻtuvchi ikkinchi omillar”**²⁰ bolaga ota-onadan irsiy oʻtuvchi xususiyatlar boʻlib, bu omillarni oʻzgartirish va almashtirish mumkin emas, insonning salomatligi va umrguzaronligi shu genetik omilga nihoyatda bogʻliq degan fikriga qoʻshilgan. Masalan, ota-onalardagi tugʻma diabet, sil, qon bosimining koʻtarilishi kasalliklari albatta bolalarda davom etadi. Shu maʼnoda, naslning tozaligini asrash va saqlashda genetik kodlarning mos kelishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Fiziologik zahiralarni organizmning funktsional faolligini saqlash va asrash, uning faoliyatini samaradorligini oshirish mexanizmi sifatida amal qiladi. Bu jarayonda organizmning barcha organlari uning tirikligini taʼminlashga xizmat qiladi, biokimyoviy zaxiralar faollashadi. Organizmning tirikligini taʼminlashda psixologik zaxiralar ham muhim ahamiyat kasb etadi, ular asosan ruhiy tetiklik, emotsiyalarning boshqarilishi, zehn oʻtkirliги, tafakkur uslubining metamorfozalari va xulq-atvorning boshqarilishida namoyon boʻladi va organizmning ijtimoiy jarayonlarga moslashishida oʻz ifodasini topadi. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekistonda tibbiy taʼminot toʻrt yoʻnalishda amalga oshirildi, malakali shifokorlar korpusini shakllantirish, malakali tibbiy xizmat koʻrsatish, yuqori tibbiy texnologiyalar bilan barcha shifoxonalarni taʼminlash, xorij mutaxassislari bilan hamkorlikni takomillashtirish yangi bosqichga koʻtarildi. Oʻtgan davr mobaynida respublika boʻyicha tibbiy xizmat koʻrsatishning umumiy salmogʻi oshirildi, biroq kasallar soni kamaymadi, aksincha oshdi. Bunga asosan odamlarning doimiy bandligi, jisimoiy mehnatning kamligi sabab boʻlmoqda.

²⁰ Вайнер Э.Н. Основы медицинских знаний и здорового образа жизни. - Москва: Кнорус. 2021. - С. 16.

Dissertatsiyada ijtimoiy muhit va sog‘lom turmush tarzi mutanosibligini ta‘minlashning ijtimoiy ahamiyati va ma‘naviy omillari asoslangan. Muallif fikricha Ijtimoiy muhit insonning muayyan ijtimoiy boshqaruv tizimida yashayotgan muhiti bo‘lib, u davlat boshqaruvi, mahalla, oila kabilarni qamrab oladi va davlat boshqaruvi darajasida amal qilayotgan siyosiy tizim va mafkura har qanday inson ijtimoiy ongining shakllanishiga ta‘sir etadi. Sog‘lom turmush tarzi esa, mavjud ijtimoiy muhit va siyosiy boshqaruv tizimida har bir insonning o‘zi uchun yaratadigan yashash sharoiti, farovonlikka erishish uchun maqsadlar to‘plami va uning natijasidir. Bunda ijtimoiy muhit davlat boshqaruvi darajasidagi umumiy sharoitlar bilan baholansa, sog‘lom turmush tarzi individual omillar bilan belgilanadi va ulardan foydalanish insonning ijtimoiy faolligi mezonlari bilan belgilanadi.

Dissertatsiyada insonning sog‘-salomat hayot kechirishining birinchi va muhim omili uning shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishi bilan bog‘liqligi, bu odam organizmini turli mikroblardan tozalash va kasallanish profilaktikasi vazifasini bajarilishi ochib berilgan. Muallif fikricha sog‘lom turmush tarzining muhim omillaridan biri bu to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatiga rioya qilishdir, chunki ovqat bu organizmni energiya bilan quvvatlantiradi, ovqat energiyasining 20 foizi miya faolligini oshirishga xizmat qiladi, madomiki shunday ekan, ovqat bu ham energiya, ham faollik manbaidir.

Tadqiqotda, tamaki chekishni inson hayoti va salomatligiga salbiy ta‘sirini aholining turli qatlamlari ongiga etkazish bo‘yicha tizimli faoliyatni tashkil etish zarurligi asoslangan. Muallif fikricha sog‘lom turmush tarziga monelik qiluvchi zararli odatlardan yana bittasi – bu spirtli ichimliklar iste‘mol qilishga ruju qo‘yishdir. Shu nuqtai hazardan Lev Tolstoyning “Vino insonlarning salomatligini, fikrlash qobiliyatini, oilasining tinchligini buzadi, eng yomoni – uning ongini va naslini zaharlaydi”, va Gippokratning “Idiotizm, epilepsiya singari kasalliklar homila paydo bo‘lgan kuni vino ichishning oqibatidir”, degan fikri, Yunon faylasufi Diogen aqli zaif bolani ko‘rib, “onasi homilador bo‘lganda otasi mast edi”, degan fikrlari hozirgi davrda odamlarning ijtimoiy ongida sog‘lom turmush tarziga rioya qilishning nazariy asosi bo‘lishi mumkin. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, zararli odatlardan yana biri – “XX asr vabosi” degan nom olgan giyohvandlik ham juda tez va keng miqyosda tarqalmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, “jahon aholisi giyohvandlik vositalarini xarid qilishga oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak xarid qilish, ta‘lim olish yoki tibbiy xizmatlardan foydalanishga qaraganda ko‘proq pul sarflamoqda”.

Muallif fikricha hozirgi davrda nafaqat yoshlar balki katta yoshdagilarning salomatligini asrash va saqlash uchun sog‘lom turmush tarzi metodologiyasini yaratishni taqozo qiladi. Unga ko‘ra qariyalarning o‘z mahallalarida doimiy sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishi ularning jismoniy tetikligini ta‘minlasa, shaxmat, shashka, domino o‘yinlari ularning aqliy faolligini oshiradi, bu esa, aholi turli qatlamlari umrguzaronligining mutanosibligini ta‘minlaydi. Sog‘lom turmush tarzi va salomatlik dinamikasini o‘rganish jahon miqyosida inson umrining nisbatan oshayotganligi barobarida yoshlar o‘limining ko‘payishining sababini aniqlash imkonini beradi.

Muallif fikricha sog‘lom turmush tarzini ta‘minlashda genetik va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik alohida ahamiyat kasb etadi. Insonning irsiy xususiyatlari ijtimoiy muhit ta‘siridagi to‘liq namoyon bo‘la olmaydi. Oila muhiti, ta‘lim tizimi, madaniy me‘yorlar hamda ijtimoiy institutlar genetik potensialning qanday shaklda ro‘yobga chiqishini belgilaydi. Sog‘lom turmush tarzi genetik determinizmni yumshatuvchi va ijtimoiy imkoniyatlar orqali biologik cheklanishlarni kompensatsiya qiluvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan sog‘lom turmush tarzi insonning biologik taqdirini ongli faoliyat orqali qayta yo‘naltirish imkonini beradi. Nazariy jihatdan genetika inson salomatligini mutlaq belgilovchi omil sifatida emas, balki imkoniyatlar doirasini belgilovchi determinant sifatida talqin etiladi. Genetik moyillik ijtimoiy muhit, tarbiya va turmush tarzi bilan o‘zaro ta‘sirida namoyon bo‘ladigan ochiq tizim sifatida qaraladi. Demak, sog‘lom turmush tarzi genetik imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish va ularni ijobiy tomonga rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy muhit va sog‘lom turmush tarzi o‘rtasidagi mutanosiblik inson hayot faoliyatining barqarorligini ta‘minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy muhit shaxsning xulq-atvori, qadriyatlari va hayotiy yo‘nalishlarini belgilovchi obyektiv sharoitlar majmuasini ifodalaydi. Shu bois sog‘lom turmush tarzi individual tanlov sifatida emas, balki ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllanadigan ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Ijtimoiy muhit va sog‘lom turmush tarzi o‘rtasidagi mutanosiblik jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Sog‘lom ijtimoiy muhitda shakllangan sog‘lom turmush tarzi mehnat unumdorligi, ijtimoiy faollik va inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

Muallif fikricha, sog‘lom turmush tarzi muayyan ijtimoiy muhit sharoitida ijtimoiy norma va madaniy ideal darajasiga ko‘tariladi. Natijada sog‘lom hayot tamoyillari individual xulq-atvor chegarasidan chiqib, jamiyat miqyosida umumiy ijtimoiy qadriyat sifatida qaror topadi. Bu holat jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik mas‘uliyatining mustahkamlanishiga olib keladi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni ijtimoiy muhit bilan mutanosiblashtirish jarayonida ma‘naviy omillar muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ma‘naviyat shaxsning ichki dunyosi, axloqiy me‘yorlari va hayotiy maqsadlarini belgilovchi asosiy mezon sifatida sog‘lom hayotga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantiradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda sog‘lom turmush tarzini barqaror ta‘minlashning ahamiyati va mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida sog‘lom turmush tarzining uzoq umr garovi sifatidagi tahlili, hayot faoliyatini oqilona tashkil etish asoslari ochib berilgan. Muallif fikricha, sog‘lom turmush tarzining muhim omillari jismoniy tarbiya va sport, sanitariya qoidalariga rioya qilish va tanani parvarishlash madaniyati, to‘g‘ri ovqatlanish, meva va sabzavotlarni ovqat xazm qilish uchun doimiy ite‘mol qilish kabilardir. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, sog‘lom turmush tarzi har qanday og‘ir kasalliklarning oldini olish manbaidir, unga rioya qilish orqali, gipertoniya, miokard infarkti, insult, nevroz, nevropatiya va onkologik kasalliklardan himoyalanih mumkin. Muallif I.Vishevning “inson umrini uzaytirishdek ulkan muammoni faqat gerontologiya fani (butun tirik organizmlarning qarish jarayonini o‘rganadigan fan) yolg‘iz hal

qila olmaydi. Organizm hayot faoliyatini qulay darajada saqlab turish vazifasini yangi fan-yuvenologiya hal qiladi”²¹ degan fikriga qo‘shilgan, chunki uchinchi ming yillikda “Yuventologiya” va “Gerontologiya” fani ijtimoiy taraqqiyotni belgilovchi muhim fanlar bo‘lib, har ikki fan ijtimoiy faol shaxs tarbiyasiga yo‘nalganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, “Yuventologiya” ijodiy faoliyatning natijalari va ruhiy kamolotga yo‘l ochadi, insonning yashirin imkoniyatlarini namoyon qilishidagi ijtimoiy muammolarning echimini topishga oqilona yondashuvni shakllantiradi va insonning 18 yoshidagi ruhiy quvvatini hatto 100 yoshda ham saqlash imkonini beradi. Masalan, O‘zbekistonning mashhur ginekologi Sh.Mavlonova 96 yoshida ham operatsiya qilgan, professor Oqil Salimov 96 yoshida respublika Ulug‘bek jamg‘armasining rahbari lavozimida ishlamoqda.

